

KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI O'QUVCHILARNING OG'ZAKI NUTQINI RIVOJLANTIRISHDA ONA TILI VA O'QISH SAVODXONLIKDAGI IJODIY MASHQLARNING AHAMIYATI

Rustamova Davlatxon Toyirjon qizi

Farg'ona davlat universiteti

Boshlang'ich ta'lim uslubiyoti kafedrasi o'qituvchisi

Tel: 916726084

Abdumutalova Muhayyoxon Qahramonjon qizi

Farg'ona davlat universiteti talabasi

Tel: 905354525

Annotatsiya. Kichik maktab yoshidagi bolalarda olib boriladigan ijodiy mashqalar. Nutq o'stiruvchi mashqlar. Bola nutqining rivojlanishida oilaning va undagi a'zolarning ahamiyati. Oiladagi ijodiy muhitning bolaga ta'siri. Kichik maktab yoshidagi bolalarning nutqini o'stirishdagi xatoliklar. Xozirgi kundagi bolalarning o'z nutqlarini ravon ifoda etaolmasliklariga sabab jonsiz narsalar bilan ko'roq birga bo'lganliklari. Ushbu maqolada o'quvchilarning og'zaki nutqini rivojlantirishning afzalliklari va usullari haqida bayon qilinadi.

Kalit so'zlar: Og'zaki nutq, tafakkur, faollashtirish, metod, maktab, ta'lim, tarbiya.

Kirish

Kichik maktab yoshidagi bolalarda nutqlaridagi nuqsonlarni bartaraf etish o'quvchilar va logopedlar zimmasiga yuklanadi. Talaffuzdagi kamchiliklarni aniqlashda bolaning nutqini tekshirib ko'rish, nutq buzulish sabablarini o'rganish lozim. Buning uchun har bir bola nutqini tekshirish varaqasi to'ldirilib, qaysi tovushlar to'g'ri yoki noto'g'ri talaffuz qilayotgani belgilab boriladi. Nutq o'stirish ongli o'qishni, so'zlash va yozishga o'rgatishni, til haqida o'quvchilarning yoshi va tushunchasiga mos bo'lgan bilim berishni, ularning lug'at boyligini oshirishni, boshqalarning nutqiga e'tibor va qiziqishni o'stirish, kitob o'qishga muhabbat uyg'otishni ko'zda tutadi. Ba'zi bolalar tovushlarni noto'g'ri talaffuz qilibgina qolmay, ularni bir-biridan farqlay ham olmaydilar. Nutqdagi bunday kamchiliklar darslarni o'zlashtirishda bolalar uchun sezilarli qiyinchiliklarni tug'diradi. Bunday hollarda logoped mashg'ulotlar yordamiga muxtoj bo'ladilar.

O'qituvchilarning ko'pchiligi og'zaki nutqning hayotiy ahamiyatini hali ham yetarli tushunmayaptilar. Shuning uchun ular maktab maxsus og'zaki nutq o'stirish mashqlari o'tkazishga muhtoj emas, deb hisoblab xato qilmoqdalar. Bunday o'qituvchilar, o'quvchi mukammal, bexato yozishni o'rganib borsa, ularning nutqi o'z-

o'zidan o'sib boradi, deb hisoblab amalda og'zaki va yozma nutqning aloqadorligini unutilib qo'yadilar.

Kichik maktab yoshidagi bolalarning nutqi mazmun jihatdan nihoyatda kambag'al va qator kamchiliklarga ega. Chunki yuqori sinflarda o'qituvchi nutq masalasiga e'tibor bermaydi. Shuning uchun o'qitish jarayonida kichik maktab yoshidagi bolalarning nutqiy tafakkurni o'stirish, nutq madaniyatini shakllantirish uchun o'qituvchilarga quyidagi tavsiyalardan foydalanish joiz deb hisoblayman:

1. Har bir o'qituvchi Kichik maktab yoshidagi bolalarni nutqini o'stirishga mo'jallangan xilma - xil metodik shakl va usullarni foydalanishi.

2. O'quvchilar uchun og'zaki nutqini o'stirishga mo'jallangan mashqlar tizimini tashkil qilish.

3. Kichik maktab yoshidagi bolalarning og'zaki nutqini o'stirishga mo'jallangan mashqlar tizimida monologik va dialogik nutq ko'nikmasini hosil qilish.

Psixolog Geydelbergning tadqiqot natijalariga asosan quyidagilar aniqlandi: Tadqiqotga 40 ta ko'p bolali (4 boladan ko'p bo'lgan) oilalar jalb qilindi va solishtirish uchun bitta farzandli oiladan 20 ta taklif qilindi. Psixologlarni, avallambor, aka-singillari bo'lgan 7 yoshli bola nutqining rivojlanish darajasi qiziqtirgan edi. Ko'p bolali oilalar ikki eksperimental guruhga bo'lindi. Birinchi guruhdagi oilalarda bolalar orasidagi yosh farqi ikki yosh va undan kam edi. Ikkinchi eksperimental guruhda 7 yoshli bolaning aka-ukalari bilan farqi 4 va undan yuqori yoshga teng edi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, oilada bitta farzand bo'lganlar nutqining rivojlanish darajasi eng yuqori edi. Ko'p bolali oilalar ichida ikkinchi guruhdagilar keyingi o'rinda edi. Ikkinchi guruh oilalar bolalarining nutq rivojlanish darajasi yoshiga nisbatan past edi va bir qator kamchiliklardan iborat edi.

Bu kamchiliklar:

1. So'zlardan yangi so'z yaratish qobiliyati rivojlanmagan.
2. Narsalar sifatini, ko'rinishini, shaklini tasvirlab berolmaydilar.
3. Matn mazmunini yaxshi izohlab bera olmaydilar.
4. Qiyin gaplarni anglay olmaydilar.
5. Qiyin gaplarni yodlay olmaydilar.
6. Ko'plikni ajratmaydilar.

Bu kamchiliklar oilada yagona farzand bo'lgan bolalarda kuzatilmadi.

Bundan ko'rinadiki, ko'p bolali oilalarda ota-ona bolalar tarbiyasiga yanada ko'proq vaqt ajratmoqlari lozim. Har bir bola bilan aynan ota-ona muloqot va muomalada bo'lishi shart, chunki bola nutqining rivojlanishi ota-ona mehridan boshlanadi.

Inson umri uchta katta faoliyatdan tarkib topgan.

Bular: o'yin, o'qish, mehnat.

Bu faoliyatlar insonni butun umri davomida mavjud bo'lib dominantligi bo'yicha o'zgarib turadi. Insonning shaxs bo'lib shakllanishida bu faoliyatlar bo'lishi muhimdir. Bularning ichida mehnat faoliyati inson umrining katta qismini egallaydi. Bolalik yoshidan to o'smirlikka qadar bolada o'yin faoliyati dominant ya'ni ustun bo'ladi. Mazkur davrda bola o'yin orqali dunyoni anglay boshlaydi. Bola 6-7 yoshdan boshlab maktabga boradi. Bu paytda o'qish faoliyatida bo'ladi-ku deyishingiz mumkin. Ha, o'qish faoliyatida bo'ladi. Lekin, o'qish qo'shimcha faoliyat sifatida qo'shiladi.

Bola tug'ilgan kundan boshlab ba'zi narsalarni sezish va ba'zi hislarni kechirish qobiliyatiga ega bo'ladi. Lekin hali bu bolada fikr qilish bo'lmaydi; bola o'sgan sari, tajriba to'play borgan sari nutq orqali aloqa qilish imkoniyati kengayib, faoliyati o'sib borgan sari ta'lim va tarbiya jarayonida uning tafakkuri ham o'sa boradi.

Aynan tafakkurning to'liq shakllanmagani bois bola dars qilishni uncha xushlamaydi. Chunki, o'qishni u idrokiga, tafakkuriga sig'dirolmaydi. O'yinni esa sig'dira oladi. Shu sabab bola o'yinni xushlaydi. Bola o'qishga qiziqishi uchun o'qishni o'yin faoliyati bilan birgalikda olib borish lozim. Bu qanday amalga oshadi? Masalan, eng zamonaviy ta'lim tizimi deya e'tirof etilayotgan Finlyandiyada til darsida sakramoq fe'lini tushuntirish uchun bolaga o'qituvchi shu fe'lni sakrash orqali ko'rsatib beradi. Bolaning o'ziga ham bu ishni bajara boradi. Bola bundan ham zavq oladi ham ta'limni o'zlashtirishi yaxshi bo'ladi. Ana shunda bola o'qishga qiziqadi. O'zi mustaqil o'qishni boshlaydi.

Xalqimizda «Ming bor eshitgandan bir bor ko'rgan afzal» degan maqol mavjud. Bu bekorga aytilmagan. Sababi, inson tevarak atrofdan keladigan axborotlarni 80%ni ko'z yordamida qabul qiladi. Shuning uchun ham darsda bola faqat eshitib idrok qilibgina qolmay balki, dars materialini ko'rib idrok etsa yana ham ta'lim olish sifati yuqori bo'ladi. Bolaning ta'limini o'qituvchilarga topshirilgani bilan baribir bolaning ta'lim olishida, barkamol shaxs bo'lib yetishishida maktab va o'qituvchilar yordamchilar xolos! Ota-ona baribir asosiy o'rinda turadi. Bugungi zamonaviy pedagogika talablariga ko'ra darsda 15 tacha o'quvchi bo'lsagina ta'lim sifati yuqori bo'ladi. Afsuski, biz hamon bunday zamonaviy ta'limga o'tganimizcha yo'q. To'g'rida, darsda o'tirgan 30-40 ta o'quvchini bittagina o'qituvchining o'zi nazorat qilishga psixologik kuchi yetmaydi-da. Umuman olganda zamonaviy ta'limga o'tsak ham baribir ota-ona bolasi ta'limiga jiddiy e'tibor qilishi kerak. Chunki, bola ko'p vaqtini maktabda emas ota-onasi bilan o'tkazadi. Eng achinarli holatlardan biri bu farzand ta'lim-tarbiyasida ko'p otalar o'zlarini bu mas'uliyatdan qochishga harakat qilishadi. Gapga, ulfatlarga vaqt bor. Bolaga esa yo'q. Otalardan qolishmaydigan onalar ham yo'q emas. Ular ham bozorga, to'ylarga, salonlarga qatnashdan ortishmaydi. Katta bo'lib bola ota-onasiga bee'tibor bo'lsa, bolam bemehr, oqibatsiz chiqdi deb nolayu fig'on qilishadi. Aslida, shunday bo'lishi tabiiy. Bola bizning ko'zgumizdir deb bekorga aytilmagan. Ko'zguda inson o'zini ko'radi. Arpa ekib bug'doy unib chiqishini

kutmaslik kerak. Konfutsiyani bola ta'lim-tarbiyasiga oid bir dono hikmati bor. Konfutsiy: Bolaga puldan kamroq. Vaqtdan esa ko'proq sarf etish zarur, deb aytadi. Aynan vaqt va e'tibor bolaning barkamol shaxs bo'lib yetishi uchun zo'r sarmoyadir.

O'qituvchi va o'quvchi bilan samimiy suhbat, do'stona hazil-mutoyibadan qochish kerak emas deb o'ylayman. Qancha ko'p suhbatlashganimiz sari ham o'quvchi shaxsiga yaqinlashamiz, ham nutqini rivojlanishiga erishamiz. Shu bilan birga odob doirasidagi suhbatimiz, samimiyligimiz bilan shaxsiy na'muna bo'lamiz.

Xulosa.

Barcha ma'naviy axloqiy fazilatlarning poydevori, tushunchalari, ko'nikmalari bolalikdan tarkib toptirilmasagina, bu poydevor barqaror bo'ladi. Ma'naviy axloqiy fazilatlar tarkibida nutq, muloqot, munosabat madaniyati alohida o'rin tutadi. O'quvchilarda nutqiy munosabatga kirishish malakasini hosil qilishda pedagogikaning roli kattadir. Bu o'qituvchining erkin va aniq ravshan nutqi, o'quvchilar nutqi va tafakkurini rivojlantirishning birinchi darajali muhim shartlaridan hisoblanadi.

O'qituvchi o'z nutqining bolalarga qanday ta'sir etayotganini kuzatishi, tushunarli va qiziqarli bo'lganini hisobga olishi kerak. Agar bolalar darsga e'tiborsiz o'tirsalar, demak, o'qituvchi nutqining ta'siri kuchi sust.

O'qituvchining mahorti shundaki, u o'zining yoqimli nutqi bilan bir butun jamoaga ta'lim-tarbiya beribgina qolmay, balki ularni yuksaklikka intilishga chorlashi kerak.

ADABIYOTLAR RO'YXATI.

1. Babayeva D.R. "Nutq o'stirish metodikasi" T. 2016-yil. O'quv qo'llanma.
2. Qosimova K. Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodiikasi. T., O'qituvchi, 1985-yil.
3. Sharipova M.B, Nizomova SH.SH. " Bolalar nutqini o'stirish" ma'ruzalar matni. 2019-2020 o'quv yili.
4. Nurmonov A. Lingvistik tadqiqot metodologiyasi va metodlari. Toshkent: Akadem nashr., 2010.
5. Babayeva D.R. "Nutq o'stirish nazariyasi va metodikasi" o'quv- uslubiy majmua. Toshkent-2018.
6. M.Asqarova, S.Matjonov va b. Kichik yoshdagi bolalar nutqini o'stirish.T.: O'zbekiston, 2001.
7. Nasiba Erxonova, Zuhra Ro'ziyeva.Nutq o'stirish qo'llanmasi .Toshkent «Davr press»2021